

20 22 yil " 25 " 01.

Olmaliq sh.

Bundan quyida "Yetkazib beruvchi" deb ataladigan "Olmaliq issiqlik manbai" MCHJ nomidan Ustav asosida ish olib boradigan direktor Ergashov L. U 80-1113 bir tomondan va bundan quyida "Iste'molchi" deb ataladigan \_\_\_\_\_ nomidan

Nizomi asosida ish olib boradigan Mamatqulov A.F boshqa tomondan quyidagilar to`g`risida ushbu shartnomani tuzdilar:

## I. ATAMA VA TUSHUNCHALAR

1.1.Ushbu shartnomada foydalilaniladigan tushunchalar quydagilarni anglatadi:

**Issiqlik ta'minotining avariyalı bronı** — iste'molchining faoliyati qisman yoki to'la to'xtatilganida uskunalarini saqlab qolish, insonlar hayotining xavfsizligi, isitish uchun zarur bo'ladigan issiqlik energiyasi sarfining eng kam hajmi;

**Issiqlik tarmog'ining balansga tegishliligi bo'yicha bo'linish chegarasi** — issiqlik tarmog'ining issiqlik bilan ta'minlovchi korxona va iste'molchi o'rtasida bo'linish nuqtasi bo'lib, ularning balansiga tegishliligi bo'yicha aniqlanadi;

**Issiq suvni hisobga olishning individual pribori** — o'lchovlar vositasi bo'ib, (temperaturasi 50-75°С chegarasida bo'lishi kerak bo'lган) issiq suvning haqiqiy miqdoriy (hajmi) hajmini yoki trubalar kesimi orqali o'tayotgan issiq suvdagi issiqlik energiyasini hisobga oladi, "Iste'molchi" uning ko'rsatkichlari bo'yicha issiq suv bilan ta'minlash xizmatlari uchun "Yetkazib beruvchi" bilan o'zaro hisob-kitob qiladi;

**Issiqlik energiyasi sifati** — bu issiqlik tarmog'ining balansga tegishliligi bo'yicha bo'linish chegarasida issiqlik parametrlarining issiqlik energiyasidan foydalinish uchun shartnomada o'rnatilgan talablarga muvofiqligi;

**Hisobga olishning nazorat pribori** — hisobga olish pribori bo'lib, uning ko'rsatkichlari asosida issiqlik tarmog'ining ayni shu nuqtasida issiqlik energiyasi sarfi aniqlanadi;

**To`liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi (to`liq yetkazib bermaslik)** — issiqlik ta'minotidagi tanaffuslar yoki cheklar vaqtida iste'molchi olmagan issiqlik energiyasi miqdori;

**Cheklov** — issiqlik energiyasidan foydalinish shartnomasida ko'zda tutilgan tadbirlarni qo'llanish natijasida, shuningdek issiqlik ta'minoti korxonasining issiqlik tarmoqlarida fors-major holatlarda yuzaga keladigan avariya rejimlarida iste'molchiga yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi miqdorining muayyan vaqt oralig'ida kamaytirilishi;

**Yakuniy hisob-kitob** — iste'molchining issiqlik ta'minoti korxonasi bilan iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun hisob-kitob davri tugagandan keyingi hisob-kitobi;

**Ulgurji iste'molchi-qayta sotuvchi** — issiqlik ta'minoti korxonasining iste'molchisi bo'lib, o'z balansida issiqlik tarmog'iga ega bo'lган va issiqlik ta'minoti korxonasidan issiqlik energiyasini ulgurji sotib oladigan va uni issiqlik energiyasidan foydalinish shartnomasi bo'yicha turli iste'molchilarga qayta sotadigan ixtisoslashgan korxona bunday iste'molchi bo'ladi;

**Issiqlik bilan ta'minlashdagi tanaffus (uzilish)** — iste'molchiga issiqlik energiyasi yetkazib berishning to'xtatilishi;

**To`lov hujjati** — to`lov talabnomasi (topshirig'i) bo'lib, uning asosida pul mablag'lari issiqlik bilan ta'minlovchi korxonaning hisob raqamiga o'tkaziladi, shuningdek xabarnoma bo'lib, bu xabarnoma bo'yicha naqd pul bilan hisob-kitob qilinadi;

**Rejali uzish** — issiqlik ta'minoti korxonasining uskunalarini rejali-oldini oluvchi ta'mirlash grafigi bo'yicha ta'mirlash yoki profilaktika davrida, agar shartnomada boshqa holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, iste'molchilar bilan oldindan kelishgan va (kamida 3 sutka oldin) xabar bergen holda iste'molchiga issiqlik energiyasi yetkazib berishning to'la yoki qisman to'xtatilishi;

**Yetkazib beruvchi** — issiqlik ta'minoti shartnomasi bo'yicha issiqlik energiyasini taqsimlash va

sotish huquqiga ega bo`lgan yuridik shaxs;

**Iste'molchi** — issiqlik ta'minoti korxonasining issiqlik tarmoqlariga bevosita ulangan, u bilan issiqlik tarmoqlarining balansga tegishliligi bo`yicha bo`linish chegarasiga ega bo`lgan jismoniy yoki yuridik shaxs bo`lib, uning issiqlik energiyasidan foydalanish huquqi va shartlari issiqlik ta'minoti korxonasining iste'molchi yoki uning yuqori turuvchi tashkiloti bilan tuzgan shartnomasi bilan belgilanadi;

**Oraliq hisob-kitob** — iste'molchining hisob-kitob davri mobaynida iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun qisman haq to'lashi;

**Hisob-kitob davri** — vaqt (oy) davri bo`lib, bu davrda issiqlik energiyasini iste'mol qilish sarfi (hajmi) aniqlangan, iste'molchi va issiqlik ta'minoti korxonasi o'rtaida iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun o'zaro hisob-kitob qilingan bo`lishi zarur. Tomonlar bilan kelishilgan hisob-kitob davri issiqlik energiyasidan foydalanish bo`yicha shartnomada ko'rsatiladi;

**Issiqlik energiyasini hisobga olishning hisoblash pribori** — “Issiqlik energiyasini hisobga olish qoidalari” talablariga javob beradigan hisobga olish pribori bo`lib, uning ko'rsatkichlari bo`yicha iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun issiqlik ta'minoti korxonasi bilan o'zaro hisob-kitob qilinadi;

**Subiste'molchi** — issiqlik ta'minoti korxonasining ruxsati bilan iste'molchining issiqlik tarmoqlariga bevosita ulangan va issiqlik energiyasidan foydalanishga iste'molchi bilan shartnomaga tuzgan iste'molchi. Energiyani subiste'molchiga uzatishda iste'molchi Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalariга rioya qilinishi uchun issiqlik ta'minoti korxonasi oldida mas'ul bo'ladi;

**Issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlari** — issiqlik energiyasini qabul qilish, tashish, qayta o'zgartirish va foydalanish uchun mo'ljallangan uskuna yoki pribor;

**Issiqlik ta'minoti korxonasi** — issiqlik energiyasini issiqlik energiyasidan foydalanish uchun tuzilgan shartnomaga bo`yicha sotish va taqsimlash huquqiga ega bo`lgan yuridik shaxs, shu jumladan ulgurji iste'molchi qayta sotuvchi;

**Hisobga olish nuqtasi** — issiqlik ta'minoti sxemasining nuqtasi bo`lib, bu nuqtada o'Ichov pribori (hisoblash schetchigi, hisobga olish tizimi, issiqlik o'Ichagich va hokazo) yordamida yoki boshqacha usulda issiqlik energiyasi sarfining miqdori aniqlanadi.

## II. SHARTNOMA MAZMUNI

2.1. Ushbu shartnomaga bo`yicha “Yetkazib beruvchi” issiqlik energiyasini markaziy isitishga va issiqlik energiyasi bilan ta'minlashni topshiradi, Yetkazib beruvchi esa obyektni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.2. Iste'molchi

*Amalig sh. Totevoliq -15-*

manzili bo`yicha obyektni issiqlik energiyasi bilan ta'minlashni topshiradi, Yetkazib beruvchi esa obyektni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Shaxsiy hisobvaragi 100244.

2.3. Tomonlar o'zlarining faoliyatini O'zR VM ning 22.08.2009-yildagi 245-son Qarori bilan tasdiqlangan “Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari” asosida amalga oshiradilar.

2.4. Shartnomaning umumiy summasi:

*348*

G kal.

X 6012 so'm = 29966 946 so'mni, shu jumladan, byudjet mablag'lardan C HAC 39084 36 cijes. so'm, byudjetdan tashqari mablag'lardan — so'mni tashkil etadi (1-ilova). To'lov uchun yetmagan summa yil mobaynida qo'shimcha bitimlar bilan rasmiylashtiriladi.

## III. YETKAZIB BERILADIGAN ISSIQLIK ENERGIYASI MIQDORI VA SIFATI

3.1. “Yetkazib beruvchi” “Iste'molchiga” 2022 yil “25” 01 dan 2022 yil “31” dekabrgacha bo`lgan davrda issiqlik eltuvchining eng yuqori soatli yuklanishi hisobidan quyidagilar uchun

issiqlik energiyasini yetkazib berishi shart:

a) isitishga: 0,0090 Gkal/soat;

b) issiq suv bilan ta'minlashga (o'rt. soat) 0,204 Gkal/soat;

v) texnologik ehtiyojlarga 0,213 Gkal/soat.

Jami 0,213 Gkal/soat. "Iste'molchiga" yetkazib beriladigan yillik issiqlik energiyasi taxminan: 2041,81 Gkal ni tashkil etadi.

Hisoblar KMK 2.01.01-94 ga muvofiq tashqi havoning me'yoriy temperaturasini hisobga olgan holda bajarilgan. Tashqaridagi havoning haqiqiy temperaturasi me'yoriydan o'zgorganida uzatilayotgan issiqlik energiyasining hajmiga temperatura grafigiga muvofiq tuzatish kiritiladi.

Noyabr oyidan boshlab mart oyi bo'yicha uzatilayotgan issiqlik energiyasi hajmiga Toshkent viloyati hokimining isitish mavsumining boshlanishi va tugatilishi to'g'risidagi qaroriga muvofiq tuzatishlar kiritiladi.

3.2. Issiqlik energiyasi "Iste'molchining" issiqlikdan foydalanadigan qurilmalariga elevator bo'g'ini orqali taqsimlanadi. "Iste'molchining" elevator uzelida toraytiruvchi qurilmani almashtirishi va o'rnatishi "Yetkazib beruvchi" bilan kelishuvi bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'mol qilinayotgan issiqlik energiyasi miqdorini shartnomada ko'rsatilgan soatli yuklanishlardan oshirishga faqat "Yetkazib beruvchining" ruxsati bilan "Iste'molchi" texnik shartlarni bajargandan va uning iltimosiga ko'ra shartnomaga tegishli tarzda o'zgartirilgandan so'ng yo'l qo'yiladi

"Iste'molchiga" yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi va issiq suvning har oylik miqdori issiqlik manbalaridan haqiqiy yetkazib berilgan issiqlik miqdoriga muvofiq ravishda hisobga olish priborlarining hisobot oyi uchun tashqaridagi havoning temperaturasiga bog'liq bo'ladigan ko'rsatkichlari bo'yicha, shuningdek hisob-kitob davrining haqiqiy davomiyligini (uzib qo'yishlarni ham hisobga olib) hisobga olgan holda hisoblanadi.

3.3. Yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasi "Iste'molchi" va "Yetkazib beruvchining" issiqlik tarmoqlari bo'linish chegarasida o'rnatilgan issiqlik energiyasi sarfini hisobga oladigan priborlar bo'yicha hisoblanadi:

- issiqlik uzatiladigan va qaytariladigan trubalarga o'rnatilgan issiqlik hisoblagichlari yoki uzatuvchi va qaytaruvchi trubalarga o'rnatilgan qayd qiluvchi sarf o'lchagichlar va qayd qiluvchi termometrlar bilan;

- isitish mavsumlari o'rtasida issiqlik energiyasi sarfi issiq suv ta'minoti liniyasida o'rnatilgan issiqlik hisoblagichi bilan yoki shu yarning o'zida o'rnatilgan qayd qiluvchi sarf o'lchagich va qayd qiluvchi termometr bilan hisoblanadi.

3.4. Issiqlik energiyasini hisobga oladigan hisoblash priborlari issiqlik tarmoqlarining balansga tegishliliği bo'yicha bo'linish chegarasidan chetda o'rnatilganda ular hisoblaydigan issiqlik energiyasi miqdori issiqlik tarmoqlarida hisoblash priborlari o'rnatilgan joydan bo'linish chegarasigacha issiqlik energiyasining yo'qotishlari kattaligiga oshiriladi (kamaytiriladi). Yo'qotishlar miqdori ushu issiqlik tarmog'inining balansga tegishliligiga bog'liq holda "Yetkazib beruvchi" va "Iste'molchi" bilan birgalikda har oyda hisoblash yo'li bilan dalolatnoma rasmiylashtirib aniqlanadi va haq to'lashda "Iste'molchi" taqdim etiladi.

3.5. Byudjet tashkilotlari xarajatlarining yillik smetasi tegishli moliya organlarida ro'yxatga olinguniga qadar shartnomada issiqlik energiyasining summasi va miqdori byudjet tashkilotlari xarajatlarining vaqtinchalik smetalariga muvofiq ko'rsatiladi.

3.6. "Iste'molchida" hisobga olish priborlari bo'limganda "Iste'molchiga" yetkazib beriladigan issiq suvdagi issiqlik energiyasi miqdori "Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari" va "Issiqlik energiyasi berishni hisobga olish qoidalari" ga muvofiq hisoblanadi. Hisoblash priborlari bo'limgan iste'molchilarga yetkazib berilgan issiq suvdagi issiqlik energiyasi miqdori "Yetkazib beruvchi" va "Iste'molchi" issiqlik tarmoqlaridagi me'yorashtirilgan va me'yorashtirilmagan dalolatnoma tuzib rasmiylashtirilgan issiqlik yo'qotishlarini chiqarib tashlab, qolgan issiqlik miqdorini iste'molchilar o'rtasida shartnomaga bo'yicha yuklanishlariga mutanosib tarzda taqsimlagan holda hisoblanadi.

3.7. Texnologik jarayoni issiqlik ta'minotida tanaffuslar bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan iste'molchilar, shu jumladan issiqlik energiyasining summasi va miqdori byudjet tashkilotlari xarajatlarining vaqtinchalik smetalariga muvofiq ko'rsatiladi.

3.8. Texnik shart-sharoitlar va yuqorida ko'rsatilgan shartnomaga bo'limgan hollarda issiqlik ta'minoti tizimlaridan foydalanish o'zboshimchalik bilan foydalanish hisoblanadi.

### **III. ISSIQLIK ENERGIYASINING NARXI VA ISSIQLIK ENERGIYASIGA HAQ TO`LASH TARTIBI**

#### **3.1. Issiqlik energiyasining narxi va unga haq to`lash.**

3.1.1. Hisob-kitob qilingan oydan keyingi oyning oxirigacha tolov amalga oshiriladigan oy issiqlik energiyasiga haq to`lash uchun hisob-kitob davri hisoblanadi.

3.1.2. “Iste’molchi” ga yetkazib berilgan issiqlik energiyasi miqdori hisobga olish priborlarining ko`rsatkichlari bo`yicha aniqlanadi.

3.1.3. Olingan issiqlik energiyasi uchun o`rnatilgan tartibda tasdiqlangan tariflarga muvofiq issiqlik energiyasini hisobga oladigan hisoblash priborlarining ko`rsatkichlari bo`yicha haq to`lanadi.

3.1.4. “Iste’molchi” har oyda joriy oyning 30 kunigacha yetkazib beriladigan oylik energiya hajmining 100% miqdorida oldindan to`lov qiladi.

3.1.5. Olingan issiqlik energiyasi uchun hisobot davri tugagan vaqtdan boshlab 30 kun mobaynida yakuniy hisob-kitob qilinadi.

3.1.6. “Iste’molchi” yetkazib berilgan issiqlik energiyasi uchun “Yetkazib beruvchiga” 1 Gkal uchun QQS bilan birga 8612 so`m to`laydi.

3.1.7. Tariflar o`zgargan hollarda hisob-kitoblar yangi tasdiqlangan tariflar bo`yicha ular kiritilgan vaqtdan boshlab amalga oshiriladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq issiqlik energiyasi birligi (1 Gkal) ning narxi o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan holda o`zgartirilishi mumkin.

#### **3.2. Issiqlik energiyasi miqdorini hisoblash.**

3.2.1. Issiqlik energiyasi miqdori “Iste’molchida” balansga tegishliligi bo`yicha bo`linish chegarasida o`rnatilgan hisobga olish priborlari bo`yicha hisoblanadi. Hisobga olish priborini “Iste’molchining” o`zi ishlataladi va ta’mirlaydi.

3.2.2. Hisoblash priborlarini ta’mirlash davrida issiqlik energiyasi uchun hisoblagichlar to`xtatilguncha oxirgi 15 kun mobaynidagi o`rtacha kunlik sarf bo`yicha hisob-kitob qilinadi.

3.2.3. “Iste’molchi” ning vakolatli vakili har oyda hisoblash priborlarining hisobga olish ko`rsatkichlarini oladi va “Yetkazib beruvchiga” issiqlik energiyasidan foydalanish bo`yicha shartnomada bilan belgilangan muddatlarda issiqlik energiyasi iste’moli to`g`risida hisobot taqdim etadi (2-ilova). Iste’molchi hisobga olish priborlarining ko`rsatkichlarini taqdim etganidan keyin hisoblagichlarning nomerlari va haqiqiy iste’mol qilingan issiqlik energiyasi to`g`risidagi ma’lumotlarni ko`rsatgan holda hisobot rasmiylashtiriladi (4-ilova), u yetkazib berilgan va iste’mol qilingan issiqlik energiyasi hisobining birlamchi hujjati hisoblanadi. Hisobga olish priborlarining ko`rsatkichlari taqdim etilganida hisobot bir tomonlama tartibda tuziladi.

“Iste’molchi” tomonidan issiqlik energiyasi iste’moli to`g`risidagi hisobot taqdim etilmagan hollarda “Yetkazib beruvchi” shartnomada ko`rsatilgan yuklanish bo`yicha hisob-kitob qiladi. Istc`mol qilingan issiqlik energiyasining haqiqiy miqdori soz holatdagi hisoblash priborining ko`rsatkichlari birgalikda olinganidan va tegishli dalolatnomada tuzilganidan so`ng qayta hisob-kitob qilinadi. Ushbu qayta hisoblash keyingi hisobot davri uchun hisob-kitob qilishda hisobga olinadi.

3.2.4. Hisobga olish pribori bo`limganida foydalanilgan energiya resursi uchun shartnomada ko`rsatilgan yuklanishlar bo`yicha amaldagi tarifning (O`zR VM ning 06.11.2013-yildagi 300-sun Qarori) ikki karrali miqdorini hisobga olgan holda, ikki tomonlama imzolangan issiqlik energiyasini olganlik dalolatnomasi asosida hisob-kitob qilinadi (3-ilova).

3.2.5. “Yetkazib beruvchi” iste’mol qilingan issiqlik energiyasi uchun o`rnatilgan shaklda (4-ilova) hisob-kitob qiladi va “Iste’molchiga” elektron schet fakturani yuboradi.

Issiqlik energiyasi uchun “Iste’molchining” hisob raqamidan O`zR Adliya vazirligida 23.06.2004-yilda 1122-1-sun bilan ro`yxatga olingan “O`zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to`g`risida nizom” ning 39-bandı Qarorga ilova qilingan 5-ilovasiga muvofiq akseptsiz pul yechish yo`li bilan to`lov amalga oshiriladi.

3.2.6. “Iste’molchi” tomonidan hisoblash priborlari ko`rsatkichlarida xatoliklar yoki issiqlik energiyasi sarfini hisoblashda yo`l qo`yilgan xatolar aniqlanganda O`zR VM ning 22.08.2009-yildagi 245-sun Qarori bilan tasdiqlangan “Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari”ga amal qilinishi zarur.

3.2.7. “Iste’molchi” ning ham alohida, ham to`plamlar tarkibiga kiradigan issiqlik energiyasini hisobga

olish priborlari metrologiya xizmatlarida tekshirilishi va guvohnomaga ega bo'lishi zarur yoki uning amal qilish muddati tugashi bilan bu priborlar bo'yicha issiqlik energiyasining hisoblanishi qonuniy kuchga ega bo'lmaydi.

Issiqlik energiyasini hisobga olish priborlari qonunda belgilangan muddatlarda tekshirishdan o'tkazilishi zarur.

#### IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

##### 4.1. "Yetkazib beruvchi" ning huquqlari:

4.1.1. "Yetkazib beruvchi" quyidagi hollarda "Iste'molchi" ni ogohlantirgan holda issiqlik energiyasi yetkazib berishni to'xtatish huquqiga ega:

- issiqlik energiyasi uchun to'lov hujjati bo'yicha belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda va ushbu shartnomada o'rnatilgan miqdorda oldindan to'lov bo'maganida;

- "Yetkazib beruvchi" ning rozilgisiz shartnomada belgilangan issiqlik yuklanishlari oshirib yuborilganida yoki tarmoqda aylanadigan suv sarfi ortib ketganida;

- subiste'molchilar, tarmoq issiqlik energiyasini iste'mol qiladigan yangi obyektlar o'zboshimchalik bilan ulab olinganida;

- hisoblash priborlari oldida issiqlik iste'mol qiladigan obyektlar ulanganida;

- "Yetkazib beruvchi" ning vakillari "Iste'molchi" obyektining hisoblash priborlarini va butun issiqlik ta'minoti tizimini tekshirishga qo'yilmaganida.

4.1.2. "Yetkazib beruvchi" uskunalarni ta'mirlash yoki yangi iste'molchilarni ulash bo'yicha rejada ko'zda tutilgan ishlarni o'tkazishda "Iste'molchi" ni issiqlik ta'minotidan uzib qo'yish huquqiga ega. Issiqlik energiyasi yetkazib berishdagi tanaffusning aniq sanasi (kuni va soatlari)ni kelishish uchun "Iste'molchi" 10 kun oldin unga issiqlik energiyasi yetkazib berish to'xtatilishi to'g'risida ogohlantiriladi. Agar "Iste'molchi" ogohlantirishni olganidan so'ng 5 kunlik muddat ichida issiqlik energiyasi yetkazib berishdagi tanaffus sanasini kelishmasa, "Yetkazib beruvchi" bu sanani o'zi mustaqil belgilash huquqiga ega bo'ladi.

4.1.3. "Yetkazib beruvchi" shuningdek avariyalarning oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish uchun "Iste'molchiga" issiqlik ta'minotidan uzishning sabablari to'g'risida darhol xabar bergan holda unga issiqlik energiyasi yetkazib berishni to'xtatish huquqiga ega.

4.1.4. "Yetkazib beruvchi" quyidagi vaziyatlar sababli yuz bergan issiqlik ta'minotidagi tanaffuslar, issiqlik eltuvchi parametrlarining pasayishi va issiqlik energiyasini to'liq yetkazib bermaganligi uchun "Iste'molchi" oldida moddiy javobgar bo'lmaydi:

- "Yetkazib beruvchi" ning uskunalarini ishdan chiqishiga olib kelgan tabiat hodisalari: yashin, to'fon, suv toshqini, yer silkinishi, yong'in.

##### 4.2. "Yetkazib beruvchining" majburiyatları:

4.2.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, "Issiqlikdan foydalanadigan qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texnik ishlatalish qoidalari", "Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari"ga rivoja qilish.

4.2.2. "Iste'molchiga" issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash. Ushbu shartnomaning 4.4.4-bandи shartlari bajarilganda issiqlik tarmoqlarining balansga tegishliliqi bo'yicha chegarasida issiq suv parametrlarining issiqlik energiyasidan foydalanish bo'yicha ushbu shartnomaga muvofiq bo'lishini saqlab turish. Parametrlarning quydagilardan og'ishishiga yo'l qo'ymaslik:

- uzatuvchi trubadagi suv temperaturasi bo'yicha - 3%(±) dan ko'pga;

- suv bosimi bo'yicha: uzatuvchi trubada - 5%(±) dan ko'pga;

- suv qaytadigan trubada - 20 kPa (±) dan ko'pga,

bunda parametrlar o'rtacha sutkali sifatida hisobga olinadi.

4.2.3. "Iste'molchining" yetkazib berilgan issiqlik energiyasining to'liq hajmda emasligi, issiqlik eltuvchining parametrlari shartnomada belgilanganga nisbatan pasayganligi to'g'risidagi yozma arizalarini 10 kunlik muddatda ko'rib chiqish.

##### 4.3. "Iste'molchi" quyidagi huquqlarga ega:

4.3.1. "Yetkazib beruvchi" dan issiqlik energiyasini Issiqlik energiyasidan foydalanish bo'yicha shartnomaga muvofiq uzluksiz yetkazib berishni talab qilish.

4.3.2. Issiqlik energiyasi yetkazib berish rejimini nazorat qilish, issiqlik energiyasi parametrlarining shartnomada ko`rsatilgan kattaliklardan:

- uzatuvchi trubadagi suv temperaturasi bo`yicha – 3%(±) dan ko`pga;
- suv bosimi bo`yicha: uzatuvchi trubada – 5%(±) dan ko`pga;
- suv qaytadigan trubada – 20 k Pa (±) dan ko`pga og`ishishiga yo`l qo`ymaslik, bunda parametrlar o`rtacha sutkali sifatida hisobga olinadi.

4.3.3. O`zR VM ning 22.08.2009-yildagi 245-son Qarori bilan tasdiqlangan “Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari” talablariga muvofiq o`z issiqlik tarmoqlariga subiste’molchilarni ulash.

4.3.4. Issiqlik energiyasining shartnomada ko`rsatilgan parametrlari pasayganida “Yetkazib beruvchiga” oldindan xabar bergen holda issiqlik energiyasi iste’molini to’xtatish.

#### **4.4. “Iste’molchining” majburiyatları:**

4.4.1. O`zbekiston Respublikasi qonunlari, “Issiqlikdan foydalanadigan qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texnik ishlatalish qoidalari”, “Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalari” ga rioya qilish.

4.4.2. O’tgan oydan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay elektron schet-faktura va qiyoslash dalolatnomasi olinishini ta’minlash.

4.4.3. Issiqlik energiyasi uchun ushbu issiqlik energiyasidan foydalanishga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda haq to`lash.

4.4.4. “Yetkazib beruvchi” bilan kelishmasdan issiqlik energiyasi soatli yuklanishlarining shartnomada ko`rsatilgan kattaligini oshirmslik, issiqlik iste’moli rejimiga rioya qilish va tarmoqda suv sarfining miqdorini oshirmslik.

4.4.5. Issiqlikdan foydalanish qurilmalari va issiqlik tarmoqlarini texnik jihatdan soz holatda saqlash, trubalarni va issiqlikdan foydalanish uskunalarini izolyatsiyalash. 5-ilovaga muvofiq har yili issiqlik bilan ta’minlash tizimini isitish mavsumiga tayyorlash bo`yicha tadbirlarni o`tkazish.

4.4.6. Hisobga olish priborlari, to`kish kranlari, toraytiruvchi qurilmalar va qulflash armaturalarida plombalarning saqlanishini ta’minlash. Plombalarni “Yetkazib beruvchi”ning ruxsat bilan olish.

4.4.7. “Yetkazib beruvchi” vakillarining sutkaning istalgan vaqtida hisobga olish priborlarini hech qanday to`sinqiniksiz ko`rib chiqishini ta’minlash.

4.4.8. Qurilish ishlarini olib borishda issiqlik tarmoqlarining muhofaza zonasini me’yorlariga rioya qilish. Issiqlik tarmoqlari ustiga materiallar taxlash, daraxtlar o’tqazishga yo`l qo`ymaslik.

4.4.9. Issiqlik tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalari, inshootlarini “Yetkazib beruvchi” bilan kelishmasdan qayta jihozlashga yo`l qo`ymaslik.

4.4.10. Isitish priborlariga qo’shimcha seksiyalar va qulflash armaturalari ulanishiga va olib tashlanishiga yo`l qo`ymaslik.

4.4.11. Isitish tizimlaridan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo`l qo`ymaslik (issiqlik eltuvchini to`kish).

4.4.12. Issiqlikdan foydalanadigan barcha qurilmalar, inshootlar va issiqlik tarmoqlari uchun ijro sxemalari, pasportlari, ishlatalish bo`yicha yo`riqnomalar bo`lishi.

4.4.13. Issiqlik energiyasi iste’molini vaqtincha to’xtatish bilan bog’liq ta’mirlash ishlarini bajarish muddatlarini “Yetkazib beruvchi” bilan kelishish.

4.4.14. Issiqlik energiyasidan nooqilona va behuda foydalanish hollariga yo`l qo`ymaslik.

4.4.15. Issiqlikdan foydalanish qurilmalarini ta’mirlash va tekshirish bo`yicha ta’mirlash ishlarining oldindan kelishilganligini tekshirish uchun “Yetkazib beruvchi” ning xodimini o`z hududiga qo`yish.

## **V. SHARTNOMA BAJARILMAGANDA YOKI TEGISHLICHA BAJARILMAGANDA JAVOBGARLIK**

5.1. “Yetkazib beruvchi” issiqlik energiyasi yetkazib berishni kechiktirgan, muddatidan o`tkazib yuborgan hollarda kechiktirilgan har bir kun uchun iste’molchiga yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi summasidan 0,5 % penya to`laydi. Lekin penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi umumiyligi summasining 50% dan oshmasligi kerak. Penyani to`lash “Yetkazib beruvchi” ni issiqlik energiyasi yetkazib berishdan ozod qilmaydi.

5.2. Issiqlik energiyasi haqini o`z vaqtida to`lamaganligi uchun “Iste’molchi” kechiktirilgan har bir kun uchun haqi to`lanmagan issiqlik energiyasi summasidan 0,4% miqdorida penya to`laydi. Lekin penyaning umumiy summasi qarz summasining 50% dan oshmasligi kerak.

5.3. Ushbu shartnomaning bekor qilinishi yoki amal qilish muddatining tugashi tomonlarni yetkazilgan zararni qoplash yoki qarzni to`lashdan ozod qilmaydi.

5.4 Issiqlik tarmoqlariga xizmat ko`rsatish bo`yicha javobgarlik chegaralari “Yetkazib beruvchi” va “Iste’molchi” o`rtasida balansga tegishliliq bo`yicha javobgarlikning bo`linish chegaralari to`g`risida tuzilgan dalolatnama bo`yicha belgilanadi.

5.5. Tarmoqlarga o`zboshimchalik bilan ulanish, hisoblash priborlariga ularning ko`rsatkichlarini o`zgartirish maqsadida qasddan zarar yetkazish qonuniy javobgarlikka olib keladi.

## VI. FORS – MAJOR

6.1. Tomonlar quyidagi hollarda issiqlik energiyasini yetkazib berish yoki uning iste’molini to`xtatish yoki kamaytirish huquqiga ega hamda buning uchun javobgar bo`lmaydilar:

- “Yetkazib beruvchi” va “Iste’molchi” ning uskunalari ishdan chiqishiga sabab bo`lgan tabiat hodisalari: chaqmoq, yashin, bo`ron, suv toshqini, yer silkinishi va boshqa fors – major vaziyatlarda.

6.2. “Yetkazib beruvchi” avariylar va boshqalarni bartaraf etish bo`yicha kechiktirib bo`lmaydigan choralar qabul qilingan hollarda “Iste’molchi” ni ogohlantirmsadan va u bilan kelishmasdan issiqlik energiyasi uzatishni uzish huquqiga ega. Lekin “Yetkazib beruvchi” issiqlik ta’minotini uzish va uning sabablari to`g`risida darhol “Iste’molchi” ga xabar beradi.

6.3 Agar 6.1-bandda ko`rsatilgan vaziyatlar tomonlarning o`z shartnoma majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta’sir ko`rsatadigan bo`lsa, bu muddatlar fors-major vaziyatlarining amal qilish muddatiga uzaytiriladi.

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATINI UZAYTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma tomonlar uni imzolagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va 20~~22~~ yil  
25. 01. dan 20~~22~~ yil 31. 12. gacha amal qiladi.

Issiqlik bilan ta’minlash shartnomasining muddati tugagandan so`ng uni to`xtatish yoki o`zgartirish to`g`risida tomonlardan birining arizasi bo`limgan hollarda shartnoma unda ko`zda tutilgan ayni shu shartlarda va muddatga uzaytirilgan hisoblanadi. Shartnoma yangi muddatga uzaytirilganida uning shartlari tomonlarning kelishuviga ko`ra o`zgartirilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo`lgan 3 nusxada tuziladi. Shartnomaning nusxalari “Issiqlik ta’minoti tashkiloti” da, “Iste’molchi” da va G`aznachilikda saqlanadi.

## VIII. NIZO VA KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Nizo va kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda tomonlar ularni muzokaralar yo`li bilan hal qilish choralarini ko`radilar.

8.2. Kelishmovchiliklarni tinch yo`l bilan kelishishga erishish mumkin bo`magan hollarda nizolar Iqtisodiy sudda o`rnatilgan tartibda hal qilinadi.

8.3. Ushbu shartnomani bajarishdan bir tomonlama bosh tortish yoki shartnomani bir tomonlama o`zgartirishga yo`l qo`ymaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan istisno.

## IX. SHARTNOMAGA ILOVALAR

9.1. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan quyidagi ilovalar ilova qilinadi:

- 1-ilova – Ajratilgan byudjet mablag`lari to`g`risida hisob-kitob;
- 2-ilova – Iste’mol qilingan issiqlik energiyasi to`g`risida hisobot;
- 3-ilova – Vakolatli mas’ul shaxsni tayinlash to`g`risida ishonchnoma;

- 4-ilova – Issiqlik ta'minoti tizimini isitish mavsumiga tayyorlash bo'yicha tadbirlar;
- 5-ilova – Issiqlik tarmoqlarining bo'linish chegaralari dalolatnomasi.

## X. TOMONLARNING REKVIZITLARI

### “Yetkazib beruvchi”

(sotuvchi nomi)  
 Manzili: **ООО «АЛМАЙЛК ИССИКЛИК  
МАНБАЧ» ТЕЛ: 01-514-00**  
 Tel., faks: **Г. АЛМАЙЛК, УЛ. КУЖАЕВА, 20А**  
 h/raqami: **РФСН2020800050400170001 ИЛОТЕКА Б-К**  
 Bank nomi **МФО 00459 НН 27157656 ОКЭД 35300**  
 MFO **STIR**  
 OKONX **•**  
 Rahbar **•**  
 (F.I.Sh.)  
 Yuriskonsult **•**



M.O.

### “Iste'molchi”

(byudjet mablag'arini oluvchining nomi)  
 Manzili: **Республика Уз.  
Ташкент - 15**  
 Tel., faks: **70-61-3-80-75**  
 G'az.h/r<sup>1</sup>: **23402 000300 1000001010**  
 Bank nomi **Респ. Банк Уз. ККМН**  
 MFO **00014 STIR 1000608498**  
 h/r<sup>2</sup>: **1000218602 70049092400239009**  
 h/r<sup>3</sup>:

(G'aznachilik bo'linmasi nomi)  
 Rahbar **•**  
 (F.I.Sh.)  
 Yuriskonsult **•**



M.C.

**BAJARILMASGAN DAFAVETLARI**  
**DAFAVU ADAMO'TRAH 21**